

**HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI VA MEHNAT
MUHOFAZASINING ASOSIY TARKIBIY QISMLARI HAMDA
NAZORAT QILINADIGAN OB'EKTLARI TAHLILI**

Mo'minjonov Nozimjon Ne'madjon o'g'li
Namangan davlat texnika universiteti o'qituvchisi
Xikmatov Husan Otabek o'g'li
Namangan davlat texnika universiteti talabasi

Annotatsiya

Ushbu ishda hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muhofazasining asosiy tarkibiy qismlari hamda ular bilan bog'liq nazorat qilinadigan ob'ektlar chuqur tahlil qilinadi. Xodimlarning mehnat faoliyatida duch kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlar, ishlab chiqarishdagi noxush holatlar va ularga qarshi kurashish choralari yoritilgan. Ishda hayotiy xavfsizlikni ta'minlovchi tizimlar, mehnat muhofazasiga oid normativ hujjatlar, texnik va tashkiliy tadbirlar, shuningdek, xavfsizlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydigan nazorat va monitoring vositalarining ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Tekshirish ob'ektlari, xavf tahlili, sanitariya va gigiena talablari, mehnat qonunchiligi, texnika xavfsizligi, nazorat va monitoring.

Аннотация

В данной работе проводится глубокий анализ основных составных частей безопасности жизнедеятельности и охраны труда, а также объектов, подлежащих контролю в данной сфере. Освещены потенциальные опасности и чрезвычайные ситуации, с которыми могут столкнуться работники в процессе трудовой деятельности, а также меры по их предотвращению. В работе рассмотрены системы, обеспечивающие безопасность жизнедеятельности, нормативные документы по охране труда, технические и организационные мероприятия, а также значимость

контрольных и мониторинговых средств, играющих важную роль в обеспечении безопасности.

Ключевые слова: Объекты контроля, анализ рисков, санитарно-гигиенические требования, трудовое законодательство, техническая безопасность, контроль и мониторинг.

Bugungi kunda ishlab chiqarish jarayonlari va turli mehnat faoliyatlarida inson salomatligi hamda xavfsizligini ta'minlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Har qanday mehnat faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni oldini olish, ularni tahlil qilish va bartaraf etish hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muhofazasining asosiy vazifalaridandir. Ushbu sohada amalga oshiriladigan chora-tadbirlar nafaqat ishchi-xodimlarning sog'lig'ini muhofaza qilish, balki ish samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muhofazasining tarkibiy qismlarini hamda ular bilan bog'liq tekshirish ob'ektlarini chuqur o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada ana shu masalalar atroflicha tahlil etiladi.

Hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muhofazasi fanining asosiy mazmuni Hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muhofazasi predmeti turadi va uning asosiy tarkibiy qismlari quyidagicha keltirilishi mumkin:

Mehnat muhofazasi o'zining vazifasi turlicha bo'lganligidan ko'p qismlarga bo'lib o'rganiladi. Bular asosan quyidagi bo'limlardan iborat;

- mehnat muhofazasi qonunchiligi;
- ishlab chiqarish sanitariyasi va mehnat gigienasi;
- xavfsizlik texnikasi;
- elektr xavfsizligi;
- yong'in xavfsizligi;
- yo'l harakat xavfsizligi;
- birinchi tibbiy yordam ko'rsatish.


1-jadvalda hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muhofazasining tarkibiy qismlari va ularning nazorat ob'ektlari

	№ Tarkibiy qism	Nazorat qilinadigan ob'ektlar	Izoh
1	Mehnat gigiyenasi	Ish joyidagi havo sifati, yoritish, shovqin, vibratsiya, harorat	Sog'liq uchun zararli omillarni kamaytirish
2	Texnik xavfsizlik	Ishlab chiqarish uskunalari, texnologik jarayonlar	Avariya va texnika bilan bog'liq hodisalarning oldini olish
3	Yong'in xavfsizligi	Yong'inga qarshi tizimlar, chiqish yo'llari, o't o'chirish vositalari	Yong'in xavfi va uning oqibatlarini kamaytirish
4	Elektr xavfsizligi	Elektr jihozlari, kabellar, uzatkichlar	Elektr urish xavfini oldini olish
5	Shaxsiy himoya vositalari (SHHV)	Xodimlar foydalanayotgan himoya kiyimlari va jihozlari	Tana a'zolarini xavfli omillardan himoya qilish
6	Ishlab chiqarish sanitariyasi	Tozalik, chiqindilarni yo'qotish, sanitariya-gigiyena holati	Infeksiyalar va kasalliklar oldini olish
7	Mehnat qonunchiligi va normativ hujjatlar	Ichki mehnat tartibi, xavfsizlik yo'riqnomalari	Qonuniy mehnat muhofazasi talablariga rioya qilish

	№ Tarkibiy qism	Nazorat qilinadigan ob'ektlar	Izoh
	Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik	Evakuatsiya rejalari, xavf tugmalar, o'quv mashg'ulotlari	Halokat holatlarida tez va to'g'ri harakat qilish uchun
	Kasb kasalliklarini oldini olish	Tibbiy ko'rik, monitoring, profilaktika tadbirlari	Xodimlarning sog'lig'ini saqlash
10	Nazorat va monitoring tizimlari	Ichki audit, xavfsizlikni baholash vositalari	Tizimli nazorat orqali xavf omillarini doimiy aniqlab borish

Mehnat muhofazasi qonunchiligi mehnat qilish va dam olishning huquqiy me'yorlarini o'z ichiga oladi, hamda ularning himoya qilinishini kafolatlaydi. Bular asosan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya asosida ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasining mehnat Kodeksida XVI bob, 294 modda bilan ko'rsatilgan. Korxona, tashkilotlarda Hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muhofazasi bo'yicha XIII – bobda fikr yuritiladi.

Ishlab chiqarish sanitariyasi -ishlovchilarga ishlab chiqarishdagi zararli omillar ta'sir etishining oldini oluvchi tashkiliy, gigienik va sanitariya-texnikaviy tadbirlar hamda vositalar tizimidir. Bunda asosan korxona-tashkilotlar ishchi-xizmatchilarining o'z sog'liklarini saqlash, mustahkamlash yo'lida sog'lom mehnat sharoitlari yaratish ko'rsatiladi. Mehnat gigienasi – tibbiyot fanining insonning ishlab chiqarish sharoitidagi mehnat faoliyatini o'rganuvchi bir qismi. Bunga asoslangan holda korxona va tashkilotlarda ishlab chiqarish zararli omillarining ishlovchilarga ko'rsatadigan ta'sirining oldini olish yuzasidan sanitariya-gigiena va davolash tadbirlari ishlab chiqiladi.



Xavfsizlik texnikasi-ishlovchilarga ishlab chiqarishdagi xavfli omillarning ta'sir etishini oldini oluvchi tashkiliy va texnikaviy tadbirlar hamda vositalar tizimidir.

Elektr xavfsizligi- ishlovchilarga ishlab chiqarishdagi elektr tokining xavfi, uning inson organizmiga ta'sirini o'rgatuvchi va xavfni oldini oluvchi tashkiliy va texnikaviy tadbirlar hamda vositalar tizimidir.

Yong'in xavfsizligi (yoki profilaktikasi)-ishlovchilarni olovdan (yong'in va portlashdan)himoya qilishga qaratilgan texnikaviy va tashkiliy tadbirlar kompleksidir.

Yo'l harakat xavfsizligi-ishlovchilarga yo'l qoidalari, turli transport vositalaridan foydalanish qoidalari hamda harakat xavfsizligiga qaratilgan texnikaviy va tashkiliy tadbirlar tizimidir.

Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish- korxona va tashkilotlarda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalar, jarohatlanishlar, kasbiy kasalliklar yuzaga kelgan vaqtda jarohatlanishni to'xtatish, imkoni bo'lsa og'riqni to'xtatish yoki kamaytirish uchun bajariladigan chora-tadbirlar tizimi.

Mehnat muhofazasi bo'yicha yuqorida keltirilgan bo'limlar alohida o'rganiladi.

Xulosa

Xulosa sifatida ta'kidlash lozimki, hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muhofazasi har bir mehnat faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu sohadagi ishlarni to'g'ri tashkil etish ishchi-xodimlar salomatligini saqlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va noxush hodisalarning oldini olishga xizmat qiladi. Tekshirish ob'ektlarini muntazam tahlil qilish, xavfsizlik talablariga rioya etilishini nazorat qilish, hamda ish joylarida zarur profilaktik tadbirlarni amalga oshirish orqali umumiy mehnat muhitini yaxshilash mumkin. Mehnat muhofazasining har bir tarkibiy qismi o'zaro bog'liq bo'lib, ularni kompleks yondashuv asosida baholash talab etiladi.

Takliflar

1. Korxona va tashkilotlarda haftalik yoki oylik asosda xavfsizlik bo'yicha ichki auditlar o'tkazilishi yo'lga qo'yilsin.
2. Ish beruvchilar va xodimlar uchun hayot faoliyati xavfsizligi va mehnat muhofazasi bo'yicha muntazam o'quv-seminarlar tashkil etilsin.
3. Mehnat muhofazasi sohasidagi normativ hujjatlar amaldagi ish sharoitiga mos holda yangilanib borilishi zarur.
4. Xavf tahlili tizimini raqamlashtirish va zamonaviy monitoring texnologiyalarini joriy etish tavsiya etiladi.
5. Tekshirish ob'ektlari uchun yagona baholash mezonlari ishlab chiqilib, ular amaliy jarayonda qo'llanilishi ta'minlansin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'.R.Yo'ldoshev, O.D.Rahimov, R.T.Xo'jaqulov, O.T.Hasanova "Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi" kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. "Davr nashriyoti" Toshkent-2013

2. Mo‘Minjonov, N. N. (2024). Xavfsiz harakatni tashkil etishda mehnat muhofazasi fanini o‘qitishni o‘rni. *Ekonomika i sotsium*, (6-1 (121)), 821-824.
3. Mashrabboyivich, M. S. (2024). Texnik vositalardan chiqayotgan shovqinning insonlarga bo‘layotgan ta‘sirini o‘rganish. *Stroitelstvo i obrazovanie*, 3(5), 131-136.
4. Mo‘Minjonov, N. N. (2024). Ishlab chiqarish korxonalaridan chiqayotgan zararli moddalarni aholi turmush tarziga ta‘siri. *Ekonomika i sotsium*, (12-1 (127)), 254-257.
5. Mominjonov, N. N. (2023). Atmosfera havosini ifloslanishi natijasida insonlarga bo‘layotgan ta‘siri. *Ekonomika i sotsium*, (11 (114)-1), 226-230.
6. Nozimjon, M. va Abdurahim, K. (2023). Sanoat va ekologik xavfsizlikni boshqarish tizimlarini tahlil qilish masalasiga. *Universum: texnicheskie nauki*, (2-5 (107)), 20-23.
7. Raxmanov, S. V., Mo‘Minjonov, N. N., & Yuldoshev, S. X. (2025). Mahalliy chiqindilarni utillashtirish bo‘yicha tashviqot-targ‘ibot ishlarini olib boorish. *Stroitelstvo i obrazovanie*, 4(2), 390-392.
8. Mo‘Minjonov, N. N., Maxamadlatifov, A., & Mahamadaminov, A. (2024). MEHNAT XAVFSIZLIGINING PSIXOLOGIK ASOSI. *Ekonomika i sotsium*, (5-1 (120)), 512-515.
9. Mo‘Minjonov, N. N., To‘Ychiyev, A. X., Abdualiyev, E. R., Akbarov, D. S., & Anvarov Sh, F. (2024). ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDAN CHIQUYOTGAN ZARARLI MODDALARNI AHOLI TURMUSH TARZIGA TA‘SIRI. *Ekonomika i sotsium*, (2-1 (117)), 445-448.